

Kamoliddin Umarov

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"San'atshunoslik va madaniyatshunoslik" kafedrası
katta o'qituvchisi
San'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail:umarovkamol@mail.ru*

IJTIMOY-MADANIY VA INTEGRATSION JARAYONLARNING O'ZBEK TEATRI RIVOJIDAGI O'RNI

Annotatsiya. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda millatlararo munosabatlar rivojida yangi bosqich boshlandi. Globallashuv davrida o'zbek teatrining xalqaro hamjamiyatdagi faoliyati soha rivojiga bir qator muhim yangiliklarni olib kirdi. Ushbu maqolada ijtimoiy-madaniy va integratsion jarayonlarning o'zbek teatri rivojidagi o'rni haqida tahliliy fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy, integratsiya, transformatsiya, teatr, spektakl, festival, diplomatiya, tafakkur, yoshlar.

THE ROLE OF SOCIO-CULTURAL AND INTEGRATION PROCESSES IN THE DEVELOPMENT OF UZBEK THEATER

Abstract. During the years of independence, a new stage in the development of interethnic relations began in our country. In the era of globalization, the activities of the Uzbek theatre in the international community have brought a number of important innovations to the development of the field. This article analyzes the role of socio-cultural and integration processes in the development of Uzbek theatre.

Keywords: social, integration, transformation, theater, performance, festival, diplomacy, thinking, youth.

Mamlakatimizning ijtimoiy-madaniy jihatdan yuksalishi, xalqaro integratsion jarayonlarda faol qatnashishi, dunyo hamjamiyatida o'z o'rni va maqomini topishida madaniyat va san'at, xususan, teatrning alohida o'rni bor. "Bugun har bir ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va xalqaro o'zgarish, islohotlar umuminsoniy madaniyatga nima beradi, degan savol nuqtayi nazaridan baholanmoqda. Global taraqqiyot milliy

madaniyatlarni inkor etmaydi, balki ularni yanada rivojlantirishni, imkoniyatlardan foydalanib jahon hamjamiyatini mustahkamlashni nazarda tutadi” [1, 362-b]. Shu ma’noda, bugungi globallashuv davrida milliy san’atimizning barcha turlarini asrab-avaylash, rivojlantirish, xalqaro miqyosda targ‘ib qilish va umumbashariy madaniyatning ajralmas qismiga aylantirish g‘oyat zarur ahamiyat kasb etmoqda.

Istiqlol yillari O‘zbekiston teatrlarining xalqaro festivallar, forumlar, kongresslar, ijodiy ko‘rik-tanlovlarda muntazam ishtirok etgani, xorij mamlakatlarida gastrol safarlarida bo‘lgani, yurtimizda nufuzli xalqaro festivallarning tashkil etilgani, jahon teatrlarining tashrifi va boshqa madaniy hodisalar mamlakatimizni ijtimoiy-madaniy taraqqiyotiga, dunyo davlatlari bilan mustahkam aloqalar o‘rnatishiga xizmat qildi. Shuningdek, bu jarayon millatlar o‘rtasida milliy va umuminsoniy g‘oyalar, do‘stlik-birodarlik, tinchlik-totuvlik, baynalmilal qadriyatlarni targ‘ib qilish va rivojlantirishga ko‘mak berdi. Professor N.Sayfullayev to‘g‘ri qayd etganidek, “Mustaqillikka erishgan O‘zbekiston teatrlari demokratiya, istiqlool nafasidan bahramand bo‘lib, nafaqat yurtimizda, balki bir qator nufuzli xalqaro festivallarda qatnasha boshladi. Bu o‘zaro san’atlar integratsiyasi san’atkorlarimiz uchun bir-biridan o‘rganish, zamonaviy teatr jarayonlaridan boxabar bo‘lish imkonini berdi. Teatrning mahsuloti bo‘lgan sahna asarini nafaqat o‘z xalqi tomoshabinlariga, balki chet ellarga chiqib namoyish etish imkoniyati faqat istiqlool tufayli yaratib berildi” [2, 158-b].

Mustaqillikning ilk yillari o‘zbek teatrining xalqaro darajaga chiqishi va e’tirof etilishida O‘rta Osiyo mamlakatlari o‘rtasida tashkil etilgan “Navro‘z” mintaqaviy festivali muhim o‘rin tutdi. Sobiq Sovet imperiyasi parchalangach, o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgan mintqa mamlakatlari o‘rtasida do‘stona birlik, qo‘shnichilik va o‘zaro hamjihatlikni mustahkamlashda bu kabi madaniy tadbirlarga ehtiyoj katta edi. Festival ilk bor O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston teatr arboblari uyushmasi tomonidan

1989- yilda tashkil etildi. 1988-yili Olmaota shahrida, 1989-yili Bishkekda, 1991-yili Dushanbeda, 1992-yili Toshkentda, 1993-yili Ashxobod shaharlarida yuqori saviyada tashkil etildi. Mazkur festivallarda O‘zbekiston teatrlari ham

munosib ishtirok etib, yurtimiz sahna san'atini xalqaro miqyosda targ'ib qilishga salmoqli hissa qo'shishdi. Xususan, 1989-yili Bishkek shahrida o'tkazilgan festivalda Farg'ona viloyati musiqali drama teatrining "Temir xotin" (Sh.Boshbekov asari, rejissyor O.Salimov) spektakli "Gran-pri"ga sazovor bo'ldi.

1993-yildan e'tiboran "Navro'z" festivalining qamrovi, doirasi yanada kengaydi. Festivalda Turkiya, Eron, Ozarbayjon, Tatariston va boshqa mamlakatlarning teatrlari 23 ta spektaklini namoyish etishdi. E'tiborlisi, bu galgi festivalda mamlakatimiz nomidan ilk bora Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat musiqali teatrining "Shahriyor" spektakli qatnashdi. Aynan shu yili YUNESCO bilan hamkorlikda Toshkentda ilk marotaba "Teatr: Sharq va G'arb" xalqaro festivali o'tkazildi. Festivalda Yaponiya, Gonkong, Angliya, Shvedsiya kabi

18 davlatdan kelgan teatrlar rang-barang mavzu va janrdagi sahna asarlari bilan ishtirok etdi. "Ushbu festival O'zbekiston mustaqilligi e'lon qilingandan keyingi dastlabki eng yirik madaniy tadbir bo'ldi, desak mubolag'a emas. O'tmishda shu kabi tadbirlarni o'tkazishda talab qilinadigan mafkuraviy bo'yoqlardan mutlaqo xoli bo'lgan ushbu teatr forumi, bir tomondan milliy ma'naviy qadriyatlarni tiklashga, ikkinchi tomondan jahonning ilg'or madaniy jarayonlarini e'tirof etishga qaratilgan chinakam oqilona madaniy siyosatni namoyish qildi" [3, 132-b].

O'zbek teatrini xalqaro maydonga chiqishida O'zbekiston Yoshlari teatri va uning badiiy rahbari, O'zbekiston San'at arbobi Nabi Abdurahmonovning xizmatlari ham beqiyos bo'ldi. Rejissyor o'z tashabbusi va sa'y-harakati bilan Yoshlar teatrini nufuzli xalqaro festivallarda ishtirok etishini ta'minladi, qolaversa, xalqaro teatr uyushmalari, tashkilotlari bilan faol aloqalar o'rnatib, xorij teatr ijodkorlarining yurtimizda gastrol safarlari va mahorat darslarini tashkillashtirishda jonbozlik ko'rsatdi. Albatta, bu jarayon teatr taraqqiyotiga xizmat qilishi bilan birga, xalqlar o'rtasida ijtimoiy-madaniy aloqalar va do'stona munosabatlarni mustahkamlashga ham yordam berdi.

N.Abdurahmonov 1998-yilda "Umar Hayyom yulduzlari" (T.Zulfiqorov asari) spektakli bilan Moskvada o'tgan A.P.Chexov nomidagi III festivalda muvaffaqiyatli ishtirok etdi. Shuningdek, rejissyorning G.X.Andersenni "Qiz bola va gugurtcha"

hikoyasi asosida sahnalashtirgan spektakli ham aynan shu festivalda ishtirok etib, teatr mutaxassislari va muxlislarida ijobiy taassurot qoldirdi. L.N.Tolstoy qissasi asosida sahnalashtirgan “Xolstomer” spektakli esa Kuznetsk, Samara va Rostov-Don shaharlarida bo‘lib o‘tgan xalqaro festivalda qatnashib, o‘zbek teatrining dovruq‘ini jahonga tanitishga xizmat qildi.

Rejissyor teatr arbobi sifatida jamoat ishlarida ham faol ishtirok etdi, xalqaro teatr tashkilotlari bilan faol aloqalar o‘rnatish, ijtimoiy-madaniy sohalarda hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga sezilarli hissa qo‘shdi. Xususan, mamlakatimizda ilk bora o‘tkazilgan “Humo” Xalqaro yoshlar teatrlari festivalini tashkil etishda alohida faollik ko‘rsatdi, mazkur festivalda ko‘plab iste’dodli yoshlarning kashf etilishiga sababchi bo‘ldi. Ilk festivalda 32 ta spektakl namoyish etildi. 2000-yilga kelib esa festival ikki bosqichda o‘tkazildi. Xalqaro teatr kuni arafasida tashkil etilgan birinchi bosqichning ilk kuni Yaponiyaning “Toyota siti balet” truppasi Alisher Navoiy teatri sahnasida “Qarsildoq” (P.Chaykovskiy) baletini namoyish etdi. Ikkinchi bosqichda Rossiyaning Yaroslavl shahar yosh tomoshabinlar teatri “Irkit o‘rdakcha” (G.X.Andersen), uchinchi bosqichda Gruziyaning Poti shahridan tashrif buyurgan Guniya nomidagi davlat drama teatri “Jonsiz qush” (I.Solmonashvili), keyingi bosqichlarda esa “Eski Machit” teatr-studiyasi “Qobil va Hobil”, Yosh tomoshabinlar teatri “Boz masxaraboz” spektakllarini namoyish etdi. Ko‘rinib turibdiki, “Humo” festivalida dunyoning turli mamlakatlaridan tashrif buyurgan teatr ijodkorlari ishtirok etdi. Bu esa O‘zbekistonning xalqaro miqyosdagi ijtimoiy-madaniy aloqalarini kengayishi, dunyo madaniy jamoatchiligi bilan integratsiyaga kirishishida alohida ahamiyat kasb etdi.

O‘zbek teatri ijodkorlarining dunyoga chiqishi, xalqaro ijtimoiy-madaniy aloqalarni jadal rivojlantirishi haqida so‘z ketganida, yana bir tendensiya haqida alohida to‘xtalish lozim. “O‘tgan asrning 90-yillari davomida hamda XXI asrning dastlabki o‘n yilligida o‘zbek teatr san’atining dunyo sahna maydonlari bo‘ylab integratsiyalashuv jarayoni kuchaydi. Yetakchi teatrlarimizning xorijiy mamlakatlarga gastrollari, Italiya, AQSH, Germaniya, Isroil singari mamlakatlardan taklif etilgan rejissyorlar tomonidan sahnalashtirilgan spektakllar bunga misol bo‘la

oladi” [3]. Xorijdan taklif etilgan rejissyorlar sahnalashtirgan spektakllarda an'anaviy shakl va qoliplardan qochib, yangicha uslublar izlash, Sharq va G'arbning mushtarak madaniyatini uyg'unlashtirish, umumbashariy g'oyalarni ilgari surish tamoyili ustuvorlik qildi. Xususan, amerikalik rejissyor Devid Kaplan Abror Hidoyatov nomidagi teatrda sahnalashtirgan “Qirol Lir” (V.Shekspir), buyuk britaniyalik rejissyor Maykl Berg Alisher Navoiy nomidagi Katta teatrda sahnalashtirgan “Knyaz Igor” (A.Borodin), tojik rejissyori Farrux Qosimov sahnaga qo'ygan A.Hidoyatov teatridagi “Elektra” (Sofokl), “Eski-machit” teatr-studiyasidagi “Shayx San'on” (F.Attor va A.Navoiy dostonlari asosida), “Nayman ona nidosi” (Ch.Aytmatov) kabi spektakllar fikrimizning yorqin dalilidir. Ushbu sahna asarlari o'zbek teatrini jahon tajribalari bilan boyitishi barobarida, san'at vositasida madaniyatlar almashinuviga, turli millat vakillari bilan do'stona aloqalar o'rnatilishiga xizmat qildi.

Shuningdek, mamlakatimizga nufuzli teatr jamoalarining gastrol safarlari bilan tashrif buyurishi, xorij teatr tashkilotlari bilan xalqaro aloqalar o'rnatilishi ham mustaqil O'zbekistonning ijtimoiy-madaniy taraqqiyotida alohida o'rin tutdi. Xususan, 2015-yil mamlakatimizga buyuk dramaturg Vilyam Shekspirning jahonga mashhur “Globus” teatrining tashrif buyurishi e'tiborga molik hodisa bo'ldi. Ta'kidlash lozimki, ushbu jahongashta teatr har yili dunyoning ko'plab mamlakatlariga safar uyushtirib, millionlab san'at ixlosmandlari orasida umuminsoniy g'oyalar – ezgulik, go'zallik, do'stlik, tinchlikni targ'ib qiladi. Shu ma'noda butun dunyoni qamrab olgan “Globe to globe” (“Globus” globus bo'ylab) nomli xalqaro turne doirasida “Globus” teatrining O'zbekistonga kelishi, jahon dramaturgiyasining shoh asarlaridan biri – “Hamlet” (V.Shekspir) fojiasini asliyat tilida namoyish etishi yurtimiz madaniy jamoatchiligida katta qiziqish uyg'otdi.

2021-yil poytaxtimizda MDH, Boltiqbo'yi davlatlari va Gruziya teatr ijodkorlarining IV Yoshlar teatr san'ati forumi o'tkazildi. Yoshlar teatr san'ati anjumanini tashkil etishdan maqsad – xalqaro madaniy aloqalarni rivojlantirish, yosh rejissyorlar, aktyorlar, rassomlarni kashf qilish, teatrshunoslar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, turli teatrlar o'rtasida o'zaro tajriba va muloqot almashishdan

iborat. Har ikki yilda bir marotaba o'tkaziladigan mazkur nufuzli forumga Toshkent shahri ilk bor mezbonlik qildi.

Ijtimoiy-madaniy va integratsion jarayonlar o'zbek teatri taraqqiyotida muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Jamiyatning yangilanishi, globallashuv va madaniyatlararo muloqot sharoitida teatr san'ati nafaqat milliy qadriyatlarni saqlab qolish, balki ularni zamonaviy shakllarda ifoda etish, jahon teatr tajribasi bilan uyg'unlashtirish vazifasini ham bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nishonova O. *Madaniy integratsiya – umuminsoniylikni rivojlantirish omili* // Глобальное партнерство как условие и гарантия стабильного развития. Материал конференции Культурология, Образование и образовательные исследования. – Toshkent Milliy universiteti, 2021. – 362-b.
2. Sayfullayev N. *Yangi davr O'zbekiston teatri: rivojlanish muammolari va izlanish jarayonlari*. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2011. – 158-b.
3. To'lxo'jayeva M. *Teatr madaniyatlari mushtarakligi: Sharq va G'arb* // "Jahon adabiyoti" jurnali, 2016. № 6, – 132-b.